

## SHARQ UYG'ONISH (RENESSANS) DAVRI ADABIYOTI

Yusupov Botirjon Maxammadjon o'g'li

*Namdu Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Osiyo mamlakatlarida IX–XII hamda XIV–XV asrlarda sodir bo'lgan madaniy yuksalish davri mobaynida yaratilgan badiiy adabiyotlar, adabiyot va san'atdagi dunyoviy go'zallikni madh etuvchi asarlar aks ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Amir Temurning olimu-fuzalolarga ilm ahillariga bo'lgan munosabatini ularning davlat boshqaruvdagi rolining ahamiyatlari haqidagi ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan. Buyuk sohibqironning davlat boshqaruvidagi tajribasi va uning bugungi kundagi amaliy ahamiyati ushbu maqolada yoritib berilgan. Shuningdek davlatimiz rahbari tomonidan Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida degan ilg'or g'oyalari ilgari surilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Renessans, ilm-fan, buyuk ajdodlar, ta'lim, madaniyat, ma'rifat, ma'naviyat, kommunikativlik, taraqqiyot.*

**Аннотация:** *В данной статье мы видим, что в литературе и искусстве нашли отражение произведения художественной литературы, созданные в период культурного подъема в странах Азии в IX–XII и XIV–XV веках, произведения, воспевающие земную красоту. Информация о важности их роли в государственном управлении свидетельствует об отношении Амира Темура к ученым. В статье освещается опыт великого предпринимателя в управлении государством и его практическое значение на сегодняшний день, а также лидер нашей страны выдвинул свои передовые идеи о том, что Новый Узбекистан стоит на пороге Третьего Возрождения. Ключевые слова: Возрождение, наука, великие предки, образование, культура, просвещение, духовность, общение, развитие.*

Renessans (Uyg'onishdavri) –Markaziy Osiyo, Eron hamda mamlakatimizda IX–XII hamda XIV–

XV asrlarda sodir bo'lgan madaniy yuksalish vatafakkuriy taraqqiyot davriga nisbatan qo'llasak, mubolag'abo'lmaydi. "Renessans" atamasida ta'lim va madaniy ma'rifiy yuksalish (XIV–XVI asrlar)ga nisbatan qo'llanilgan, unio'rta asrchilik turg'unligi daniy davrga o'tish bosqichidebbaholaganlar.

Ammo Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa uchun xos bo'lgan hodisa emas. Dunyo madaniyatini yaxlitolib o'rgangan olimlarning ishlarini ko'rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eron Italiyaga qaraganda bir necha asrdin, ya'ni IX–XII asrlarda ulkan madaniy burilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa va adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'orinsonparvarlik g'oyalarini jamiyat fikriniband etgan, aqliy hamda ijodiy faollik gullab-yashnagan. Ushbu davr dunyofanida "Musulmon Renessansi" yoki "Sharq Uyg'onishi" nomlari bilan ataladi.

Sharq Renessans davri kichik bosqichga bo'linadi:

1. IX–XII asrlar – Birinchi Renessans
2. XIV–XVI asrlar – Ikkinchi Renessans

Barcha sharq va g'arbolimlarining e'tirof qilishlaricha, Yevropada XV asrlar orasida yuzaga kelgan Birinchi Renessans yurtimizda undan bir necha yuz yil avval, ya'ni IX–XI asrlarda ro'y bergan. Ushbu kanyuksalishning sodir bo'lishining o'z tarixiy sabablaribor, albatta. Chunki, mazkur davrda davlatta raqqiyoti uchun juda muhim bo'lgan yangi islohotlar va qonunlar joriy qilingan. Davlat yuritishdagi va siyosatdagi yangiliklar ilmi-fankishilarini ezigug'oyalar atrofida birlashtirdi, turli tumanfanlarga, ayniqsa matematika, astronomiya, tibbiyot, huquqqa qiziqish kuchaydigan dunyo tuzilishi haqidagi zamonaviy nazariyalarga aynano'sha davrda asossolindi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xoshojib, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, kabir buyuk ajdodlarimiz serqirra iste'dod sohiblari ushbu davrda yashab ijod qilish bilan bir qatorda, o'z fanlaribo'yicha butun olamga ustozlik maqomiga erishdilar. Mazkur davr dunyo taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab berdi, desak to'g'ri bo'ladi. Buning yorqin isboti – Xorazmda barpo etilgan Ma'mun akademiyasidir. Ushbu davrda yaratilgan eng mashhur asarlaridan: "Al-jabr va lmuqobila" va "Yersur'ati" (Muso al-Xorazmiy), "Samoviy harakatlar va ilminujum" (Ahmad al-Farg'oniy), "Ilmlartasnifi" va "Misiqa haqida risola" (Abu Nasr Forobiy), "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Minerologiya" va "Hindiston" (Abu Rayhon Beruniy), "Tibqonunlari" (Abu Ali ibn Sino) larni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Prezidentimizning ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan videoselektoriyig'ilishida "O'n beshinchi asrda sohibqiron Amir Temur asossolgan va uning munosib avlodlarida vometitirgan muhtasham saltanat yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi", deb ta'kidladi. Tarixdan ma'lumki O'rta Osiyo hududi qadimdan turli xil bosqinchilar uchun juda yaxshimakon bo'lib kelgan. Miloddan avvalgi asrlarda ko'plab bosqinchilik yurishlarini ko'rishimiz mumkin. Har bir bosqinchilik yurishlarida o'zining salbiy oqibatlarini qoldirish tabiiy hol. VII–VIII asrlarda arablar bosqini O'rta Osiyo hududiga o'zining salbiy jihatlari bilan birgalikda ijobiy tomonlarini ham ko'rsatdi. Arablar bosqini dano'ng sharqda ilk uyg'onish davri aynan O'rta Osiyo hududida ro'y berdi. Budavrda ko'plab buyuk zotlar allomalari yetishib chiqdiki ularning ma'naviy dunyo sihali hamon oramizda yashayotganligini xisetishimiz mumkin. Ikkinchi ana shunday uyg'onish davri ham aynan sharqda vujudga keldi bu Amir Temur va Temuriylar davriga to'g'ri keldi. Budavrtarixga ikkinchi uyg'onish davri bo'lib kirdi.

Amir Temurning o'z qimishliligi, zukkoligi adabiyot va san'atga qiziqishitufayliturli xildavlatlardan olib kelingan olimu-fuzalolar, keyinchalik allomalar bilan ko'plab suhbatlar uyushtirib turardi, Amir Temurning bunday olib borgan bunday oqilona siyosatizamirida XIV–XV asrlarda sharq musulmon olamida IX–XII asrdano'ngyana bir uyg'onish davrini Renessansni vujudga

kelishida juda katta omil bo'lib xizmatqildidesak aslomubolag'a bo'lmaydi. Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning umumiy yuksalishiga, ishlab chiqarish va hunarmandchilik o'sishiga yordam berdi, shu jumladan ta'lim, ilm-fan sohasiga asosiy e'tiborini qaratadi. Uning ilm-fanga qaratilgan o'yalarini zo'rnida javob tariqasida, ilm va madaniyat rivojida davlat, qudratiga qudrat, obro'siga obro' qo'shgan. Ayniqsa mo'g'ullar danso'ngezilgan xalqning o'tmishini ajdodlarining qanday buyuk shaxslar ekanligini bilishi uchun tarix sohasini rivojlantirdi. Temurning o'z iham tarixiy adabiyotlarini mutolaa qilib borardi. Bu haqda Amir Temur saroyida 12 yoshida keltirilgan tarixchilik bilan shug'ullangan Ibn Arabshoh o'zining Amir Temur tarixi kitobida shunday keltiradi: "Temur tarix (kitob) lari, Xudoning rahmatiga salom bo'lg'ur anbiyolar «Qissalarni podshohlarning siyratlariva o'tgan salaf lar haqidagi hikoyalarni doimo-saafarda, ham xadarda ham o'qutib, qunt bilan tinglardi»<sup>1</sup>. Ko'rinib turibdiki Amir Temurning tarixiga, o'tmishga, ajdodlarimerosiga befarqqaramasligiuning ma'naviy ezilgan xalqni qaytadan ma'naviy jihatdan birlashtirishiga katta yordam berdi. Amir Temur davlatida ilm-fan bilan shug'ullanish uchun juda katta imkoniyatlari yaratish bilan birgalikda olimlarni har jihatdan qo'llab quvvatlagan. Amir Temur yurishlarivaqtida qaysi davlatga bormasin birinchi navbatda ilm ahllarini, olimlarni va yozuvchilarni alohida e'tibor bilan ulug'lagan, izzat-ikrom ko'rsatib ularni o'z davlatiga olib kelgan va ilmi bilan shug'ullanish uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan. Amir Temur olimlar bilan suhbat va bahslar uyushtirishni yaxshiko'rgan, g'olib larga unutilmassov g'alar bergan. Amir Temur o'qimishli, donokishilardavrasini, ular bilan suhbat qilishni yoqtirgan, davlat ishlarini yo'lga qoyishda ular bilan maslahatlashib ishko'rgan. Shuning uchun ham u o'zining "Temur tuzuklari" da qaydetilgan 12 toifa va tabaqaning ikkinchisiga aqllik ishlar va kengash sohiblarlarni kiritdigan ularni e'tiborlash xaslar deb bildi. Madrasalar, kutubxonalar, maktablar barpo etildi. Buning natijasida o'laroq, Temuriylar davrida ilm-fan ravnaq topib, bu jahon tarixida "ikkinchi Renessans" nomi bilan tilga olindi. Ikkinchi Renessans davrida Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod kabi allomalari yashab ijod qilishgan.

Ushbu davrda yaratilgan eng mashhur asarlar: "Zijjadidi Ko'ragoniy (Mirzo Ulug'bek), "Masnaviyima'naviy" (Jaloliddin Rumiy), "Xamsa", "Xazoinulmaoniy", "Majolisunnafois", "Mahbub-ul-qulub" (Alisher Navoiy)", "Boburnoma" (Zahiriddin Muhammad Bobur) nimisolqilib keltirishimiz mumkin.

Mamlakatimiz ayni paytda Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev rahbarligida Uchinchi Renessansga qadam qo'yimoqda. Shumaqsad yo'lida ta'lim tizim tubdan isloh qilinmoqda. 2020 yil 29 dekabrda Prezidentimiz Oliy Majlisga murojaatnomalarida ham bu haqda quyidagi fikrlarni bildirib o'tdilar: "Bizo'zoldimizga

mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyaning rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaratib olib, ilmiy-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlaridan bo'lib, xizmat qilish ilozim. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundaygina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratlik uchga aylanadi".

Shunday qilib, uchinchilarning Renessans davriga qadam qo'yarekanmiz, yangi Renessans pedagogikasi mezonlarini ham bilishimiz zarur bo'ladi. Buning uchun quyidagilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin:

Ijtimoiy moslashuvchanlik:

o'qituvchining ijtimoiy maqomi, roli va funksiyalarini chuqur anglashi; o'quv, pedagogika va ijtimoiy faoliyatning xilma-xil turlariga ishtirok etish tajribasiga egalik; ijtimoiy talablarga o'ng munosabat; kasbiy-rolli xulq-atvorni qo'qqin namoyon etish; shaxsiy o'z-o'zini namoyon etishga qobiliyatlilik

Psixologik moslashuvchanlik:

motiv, ehtiyojlarning barqarorligi; o'z-o'zini tahlil etish va baholay olish; yangiliklarga moslashuvchanlik; ichki kuch va imkoniyatlariga o'zida ishonchning mavjudligi; psixologik to'siqlarni yengib o'tish; pedagogik-psixologik talvakkalchiliklarga tayyorlik

Kommunikativ moslashuvchanlik:

muloqotchanlik; samarali muloqotga kirishish texnika va texnologiyasiga egalik; empatik va suggestiv qobiliyatga egalik; ijobiy psixologik muhitni qaratib olib; insonparvar, tolerant va demokratik munosabatlarni yo'lga qo'yish

Kasbiy-pedagogik yetuklik pedagoglik kasbining obro'siva nufuzini oshirishga intilish, pedagoglik kasbiga qadriyat munosabatning tarkib topganligi; muntazam kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish istagi; yuksak kasbiy-axloqiy sifatlariga egalik; pedagoglik kasbidan qoniqish hissi; pedagogik refleksiyani rivojlantirishning mezonlarini bilimshimiz zarurdir.

Xulosashuki, O'zbekiston bugun jadallik bilan kechayotgan anashunday islohotlar, jamiyatdagi yangilanishlar mamlakatdake zayotgan uyg'onish ruhida dalolatdir. Uchinchi Renessans uzoq istiqbol masalasi emas. U bugun, ushbu onda jamiyatimiz, uning har bir jabhasida sodir etilib kelinayotgan real voqelikdir. Ishonchimiz komilki, yurtimizda boshlangan bu yangilanishlar izchil davom etadi va xalqimiz orzu qilgan buyuk davlat, farovon kelajak barpo etishda mustahkam poydevor bo'ladi.

#### REFERENCE:

1. Amir Temur tarixi (1-, 2-kitoblar; so'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlar muallifi U. Uvatov), T., 1992.1

2 2020 yilgi Prezidentning Murojaatnoma. maruzasi 28.01.2020

3. Amir Temur Jahon tarixida.T.,2001y.

4. Azamat Ziyο.O`zbek davlatchiligi tarixi.T.,2000y.

internet saytlar:

<https://lex.uz/docs/-5280079>